

---

## **NOGIRONLIK ARAVACHASI TOPSHIRILDI**

Toshloq tumani 2-sektor hududidagi Farog'at mahalla fuqarolar yig'inida o'tkazilgan xatlov jarayonlarida mahallada istiqomat qilayotgan Sardorbek Toshmurodov nogironlik aravachasiga muhtoj ekanligini ma'lum qilib, murojaat qilgan edi. Murojaat yuzasidan Sardorbekni "Yoshlar daftari" ro'yxatiga kiritish tavsiya etildi. Qisqa fursatlarda Yoshlar jamg'armasi mablag'lari hisobidan Sardorbekka elektr yuritmalari nogironlik aravachasi ajratildi.

Bugun tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev hamda tuman prokurori Axrorjon Xudoyberganovlar ushbu fuqaroning xonadonida bo'lib, nogironlik aravachasini topshirdilar.

2023-02-23 18:05:54